



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksonometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 372.881.111.1

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FAN TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY MUAMMOLARI

Madaminova Gulzira Gulamkadirovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekiston umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari, ularning ta'lim tizimidagi o'rni hamda o'quvchilarning kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, fan to'garaklari faoliyatini tashkil etishda uchrayotgan tashkiliy-boshqaruv, metodik-didaktik va resurs bilan bog'liq muammolar ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar:

fan to'garagi, darsdan tashqari ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlar, umumiy o'rta ta'lim.

Аннотация.

В данной статье анализируются теоретические и правовые основы организации предметных кружков в общеобразовательных школах Республики Узбекистан, их роль в системе образования, а также их значение в развитии когнитивных, коммуникативных и социальных компетенций учащихся. Кроме того, с научной точки зрения рассматриваются организационно-управленческие, методико-дидактические и ресурсные проблемы, возникающие при организации деятельности предметных кружков, а также разрабатываются научно-практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова:

предметный кружок, внеклассное образование, компетентностный подход, нормативно-правовые документы, общее среднее образование.

Abstract.

This article analyzes the theoretical and legal foundations of organizing extracurricular activities in general secondary schools of Uzbekistan, their role in the education system, and their significance in developing students' cognitive, communicative, and social competencies. In addition, the study examines organizational-managerial, methodological-didactic, and resource-related challenges encountered in organizing the activities of subject clubs from a scientific perspective, and proposes scientific and practical recommendations for addressing these issues.

Keywords:

subject club, extracurricular education, competency-based approach, normative legal documents, general secondary education.

Tez sur'atda rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot va globallashuv sharoitida ta'lim tizimida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, avvalo, umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan dars va darsdan tashqari faoliyatlarning mazmuni va metodikasida o'z ifodasini topadi. Bu jarayonlar o'quvchilarning shaxs sifatida

shakllanishi va samarali muloqot hamda hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablarida ta'lim jarayoni tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida rejalashtirilgan va tizimli tarzda tashkil etiladi. O'qituvchilar o'zlariga belgilangan o'quv yuklamasi doirasida tegishli fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib boradilar hamda bu yuklama tarkibiga darsdan tashqari tashkil etiladigan fan to'garaklari ham kiradi. Fan to'garaklari o'quvchilarning muayyan fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish hamda ularning fanlarga bo'lgan qiziqishi va intellektual faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi qo'shimcha ta'lim shakli hisoblanadi. Shu bois fan to'garaklari ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish va shaxsiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni ifodalaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimida darsdan tashqari to'garaklarning huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan funksional vazifalarini ko'rib chiqishdan avval "to'garak" so'zining etimologiyasi va ilmiy adabiyotlarda berilgan ta'riflarini tahlil qilish muhimdir. O'zbek tilining izohli lug'atida "to'garak" so'zi, bir tomondan, aylana yoki doira shaklini anglatrsa, ikkinchi ma'noda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar guruhi sifatida izohlanadi (musiqqa to'garagi, yosh tabiatshunoslar to'garagi va boshqalar) [1]. Demak, ushbu atamaning dastlabki semantik ma'nosi "aylana, davra" bo'lsa, keyinchalik u ma'lum maqsad atrofida birlashgan guruhni ifodalovchi tushuncha sifatida qo'llanila boshlagan.

Pedagogik adabiyotlarda "to'garak" darsdan tashqari ta'lim shakli sifatida talqin qilinadi. B.X. Xodjayev, B.R. Qodirov, V.A. Slastenin va boshqa pedagog olimlar qarashlariga ko'ra, fan to'garagi o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlari asosida ixtiyoriy ravishda tashkil etilib, ularning bilimni chuqurlashtirish hamda ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [2]. Psixologik nuqtayi nazardan esa to'garak o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, motivatsiyasi va kognitiv faolligini rivojlantiruvchi muhit sifatida qaraladi. Xorijiy ta'lim tizimlarida bunday faoliyat turlari "extracurricular activities", "school clubs" yoki "academic clubs" atamallari bilan ifodalanib, o'quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida baholanadi.

Pedagogik manbalarda maktab to'garaklari o'quv jarayonini boyituvchi qo'shimcha ta'lim muhiti sifatida talqin etiladi. J.Mahoney va uning safdoshlarining olib borgan tadqiqotlarida darsdan tashqari faoliyatlar o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, akademik motivatsiyasi hamda maktabga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda muhim omil ekani qayd etiladi [3]. Ularning ta'kidlashicha, bunday faoliyat turlari o'quvchilarga norasmiy ta'lim muhitida o'z qobiliyatlarini namoyon etish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Fredricks va Eccles tadqiqotlarida maktabdan tashqari klub va to'garaklar o'quvchilarning kognitiv faolligi hamda akademik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan. Tadqiqotchilar bunday mashg'ulotlar o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish,

muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydilar [4]. Umuman olganda, fan to'garaklari o'quvchilarning qiziqishlari asosida ixtiyoriy ravishda tashkil etiladigan darsdan tashqari ta'lim shakli bo'lib, ularning fanlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, qo'shimcha bilim berish hamda muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Baholash tizimining mavjud emasligi esa o'quvchilarga erkin va qiziqarli ta'lim muhitida faol ishtirok etish imkonini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasidagi umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Bu jarayon mamlakat ta'lim siyosati, davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ta'lim sohasidagi asosiy hujjatlardan biri bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim tizimining uzluksizligi, umumiy o'rta ta'limning tashkil etilishi hamda ta'lim jarayonining davlat siyosati va ta'lim standartlari asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini ta'minlaydi. Qonunning 34-moddasida esa Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'lim uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishini ta'minlashi hamda ularni bajarish barcha ta'lim tashkilotlari uchun majburiy ekanligi qayd etilgan. Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim mazmuni hamda sifatiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi muhim hujjatlardan biri — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom" hisoblanadi. Ushbu Nizom umumta'lim maktablari faoliyatini tashkil etishning yagona tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab, ularning maqomi, vazifalari, boshqaruv tizimi hamda ta'lim jarayonini tashkil etish tartibini tartibga soladi. Nizomga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim 11 yil davom etuvchi uzluksiz ta'lim tizimining majburiy bosqichi bo'lib, o'quv jarayoni tayanch o'quv reja va tasdiqlangan dasturlar asosida tashkil etiladi. Ta'lim sifati esa joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar orqali baholanadi hamda so'nggi yillarda baholashning shaffofligini ta'minlash maqsadida mezonlarga asoslangan baholash tizimini joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda [5].

Shuningdek, Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 1-dekabrda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya natijadorligini ta'minlashda xalq ta'limi boshqaruv idoralari va ta'lim muassasalari rahbarlari mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi 367-sonli buyrug'ining 7-bandida barcha fan o'qituvchilari tomonidan (pedagogik yuklamasiga muvofiq o'quvchilar bilan individual ishlash hisobidan) haftasiga 2 marotaba 2 soatdan fan to'garaklari o'tilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Bu o'z o'rnida oquvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, fan doirasida ularga qo'shimcha bilim olish imkoniyatini yaratish va iqtidorli yoshlarni erta aniqlashga sharoit yaratadi.

O'quvchilar uchun darsdan tashqari fan to'garaklarini tashkil etish o'qituvchining lavozim majburiyatlari doirasida ham belgilangan. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 20-dekabrda 565-sonli buyrug'ida o'z aksini topgan bo'lib, unda umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining lavozim yo'riqnomalari tasdiqlangan. Mazkur hujjatga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirish, fanlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan hamda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash maqsadida o'z fani bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishi va olib borishi lozim.

Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tizimli tashkil etish va o'quvchilarni ularga keng jalb etish majburiy o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarda darsdan tashqari to'garak faoliyati o'quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilardan F. Mogonea darsdan tashqari mashg'ulotlarni rasmiy ta'limni boyituvchi muqobil pedagogik muhit sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, sinfdagi an'anaviy ta'lim ko'proq akademik natijalarga yo'naltirilgan bo'lsa, darsdan tashqari faoliyat o'quvchilarning tashabbuskorligi, mustaqilligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Tadqiqotchi bunday mashg'ulotlarni "learning by doing" — ya'ni faoliyat orqali o'rganish tamoyiliga asoslangan ta'lim shakli sifatida izohlaydi [6].

Darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarining pedagogik, psixologik va lingvistik jihatdan o'rganilgan tahlillari va normativ-hujjatlarda belgilangan funksiyalarini umumlashtirgan holda fan to'garaklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Kompensator funksiyasi – fanlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchilar bilan ishlash;

Rivojlantiruvchi funksiyasi – iqtidorli o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish;

Kasbga yo'naltiruvchi funksiyasi – o'quvchilarni muayyan fan sohasiga qiziqtirish orqali kelajak kasb tanloviga ta'sir ko'rsatish;

Ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi – jamoada ishlash, muloqot, liderlik ko'nikmalarini shakllantirish.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan fan to'garaklari o'quvchilarda bir qator muhim kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi:

Predmet kompetensiyasi – fan bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim;

Kognitiv kompetensiya – tahlil qilish, umumlashtirish, muammo yechish;

Kommunikativ kompetensiya – fikrni asosli ifodalash;

Ijtimoiy kompetensiya – jamoada hamkorlik qilish.

Shu bois fan to'garaklari kompetensiyaviy ta'lim modelining muhim amaliy komponenti sifatida qaralishi lozim.

Ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda umumta'lim maktablarida fan to'garaklari faoliyatining amaliy holatini tahlil qilish natijasida ushbu sohada bir qator tizimli muammolar mavjudligi aniqlandi. Ushbu muammolarni shartli ravishda tashkiliy-boshqaruv, metodik-didaktik hamda motivatsion va resurs bilan bog'liq muammolar guruhlariga ajratish mumkin.

1. Tashkiliy-boshqaruv muammolari.

Fan to'garaklari faoliyatini tashkil etish jarayonida, avvalo, tashkiliy va boshqaruvga oid muammolar ko'zga tashlanadi. Xususan, umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etish, rejalashtirish hamda ularni olib borish tartibini belgilovchi yagona metodik yo'riq-noma yoki standart o'quv dasturining mavjud emasligi bu jarayonning tizimlilikini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Natijada to'garak mashg'ulotlarining mazmuni, shakli va tashkil etish usullari ko'p jihatdan o'qituvchining individual pedagogik tajribasi hamda maktabning ichki tashabbusiga bog'liq holda shakllanmoqda. Shu bilan birga, fan to'garaklari faoliyatining samaradorligini monitoring qilish, ularning natijadorligini baholash va rivojlantirish istiqbollari aniqlashga qaratilgan aniq mezon va indikatorlar tizimi ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

2. Metodik-didaktik muammolar.

Fan to'garaklari faoliyatida kuzatilayotgan muammolarning yana bir muhim guruhi metodik-didaktik ta'minot bilan bog'liqdir. Ko'plab maktablarda fan to'garaklarini olib borish uchun maxsus metodik qo'llanmalar, o'quv-uslubiy materiallar hamda namunaviy mashg'ulot ishlanmalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada to'garak mashg'ulotlari ko'pincha an'anaviy dars shakliga yaqin tarzda olib borilib, o'quvchilarning ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlardan to'liq foydalanilmaydi. Bundan tashqari, to'garak mashg'ulotlarining umumta'lim fanlari o'quv dasturlari bilan tizimli integratsiyasi ham yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan bo'lib, bu holat to'garak faoliyatining ta'limiy samaradorligini pasaytirishi mumkin.

3. Motivatsion va resurs bilan bog'liq muammolar.

Fan to'garaklari faoliyatining samarali tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri moddiy-texnik hamda motivatsion ta'minot bilan bog'liqdir. Ko'plab umumta'lim maktablarida to'garak mashg'ulotlari uchun alohida o'quv xonalari, zarur jihozlar, texnik vositalar va didaktik resurslar yetarli emas. Maktab byudjetida to'garak faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan alohida moddiy qo'llab-quvvatlash choralarining yetarli darajada ko'zda tutilmaganligi natijasida ayrim to'garaklar cheklangan resurslar sharoitida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, fan to'garaklari mashg'ulotlari odatda darsdan tashqari vaqtda tashkil etilishi o'qituvchilardan qo'shimcha vaqt va mehnat sarflashni talab etadi. Biroq aksariyat hollarda ushbu faoliyat uchun alohida moddiy rag'batlantirish mexanizmlari nazarda tutilmaganligi o'qituvchilarning to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishga bo'lgan motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim fan to'garaklariga o'quvchilarning qiziqishi past bo'lishi yoki talabning yetarli darajada shakllanmaganligi ham mazkur faoliyatning barqarorligini ta'minlashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Yuqoridagi tahlillar umumta'lim maktablarida fan to'garaklari faoliyatini tashkil etishda qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu muammolar to'garaklarning ta'limiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilib, ularning o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish hamda ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi rolini to'liq

namoyon etishga imkon bermayapti. Shu sababli fan to'garaklari faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish, ularni samarali tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi hamda fan to'garaklari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Fan to'garaklari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda davlat ta'lim standartlarida belgilangan kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qator ilmiy-amaliy choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, tashkiliy-boshqaruv yo'nalishida fan to'garaklarini tashkil etish va rejalashtirish tartibini belgilovchi yagona nizom, namunaviy o'quv dasturlari hamda metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zarur. Bu to'garak faoliyatini tizimlashtirish va uning mazmunini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Metodik-didaktik jihatdan esa o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, seminar-treninglar va ilmiy-metodik workshoplar tashkil etish, shuningdek, interaktiv metodlar, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli pedagogik texnologiyalarni to'garak mashg'ulotlariga joriy etish muhimdir. Motivatsion va resurs yo'nalishida esa to'garaklarni zamonaviy texnik vositalar, laboratoriya jihozlari va raqamli ta'lim resurslari bilan ta'minlash, oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish va jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlar fan to'garaklari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik modelni ishlab chiqish va uni ta'lim amaliyotiga joriy etish uchun muhim nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. – Toshkent, 2020. – 13-bet.
2. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
3. Fredricks J.A., Eccles J.S. Developmental Psychology. – 2006. – Vol. 42. – №4. – P. 698–713
4. Mogonea F. Extra-curricular activities as an educational alternative for the training/development of transversal competencies // Annals of the University of Craiova. Psychology-Pedagogy series. – 2023. – No. 45(1). – P. 175–185.
5. Qodirov B.R. Umumiy pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. 77-b.
6. Xodjayev B.X., Nishonova S.N., Rasulov A.A. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. 97-b.

